



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEKNIKA
UNIVERSITETI**

Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60711900 – Barqaror transport
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60711900 – Barqaror transport

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEKNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ABDURAZZOQOV UMIDULLA ABDURAZZOQOVICH

Toshkent davlat transport universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: JASMINA CASALS

Polytechnic University of Catalonia

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260111
Xulosa raqami	984
Xulosa sanasi	15.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEKNIKA UNIVERSITETI" NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Kichik xalqa yo'li, Niyazov ko'chasi, 17-uy. Guvohnoma: MAS № 0000286, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Barqaror transport
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60711900
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000286, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60711900 – Barqaror transport
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60711900 – Sustainable Transport
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60711900 – Устойчивый транспорт
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	ingliz
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Transport muhandisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	120 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Kichik xalqa yo'li, Niyazov ko'chasi, 17-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy hujjatlar, rivojlantirish strategiyalari, sifatni ta'minlash tizimi, mehnat bozori monitoringi natijalari hamda ta'lim dasturini rejalashtirish va boshqarishga oid materiallar kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 60711900 – "Barqaror transport" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv asoslari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini boshqarishga mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolat va funksiyalari belgilanganligi, istiqbolli rivojlantirish rejasi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Barqaror transport kabi zamonaviy va jadal rivojlanayotgan yo'nalishda mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam o'rganish hamda olingan natijalar asosida ta'lim dasturini davriy takomillashtirib borish uning dolzarbligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar va boshqa daliliy materiallar asosida ta'lim dasturining mazmuni belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60711900 – "Barqaror transport" ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan ta'lim natijalari, shakllantiriladigan kompetensiyalar, o'quv reja va fanlar tarkibi amaldagi milliy normativ talablar hamda zamonaviy muhandislik ta'limi tamoyillari asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi mazmunida barqaror rivojlanish tamoyillari, ekologik yondashuvlar, energiya samaradorligi va zamonaviy transport texnologiyalariga oid masalalarning o'z aksini topgani kuzatildi. Mazkur yo'nalishda ekologik barqarorlik va energiya tejamkorligi tamoyillarining ta'lim

mazmuniga integratsiya qilinishi kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi. Shuningdek, ta'lim dasturining ingliz tilida amalga oshirilishi xalqaro ilmiy adabiyotlar, ilg'or tajribalar va zamonaviy axborot manbalaridan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirishi e'tirof etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni va tuzilishi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish hamda ta'lim natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60711900 – "Barqaror transport" ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi amaldagi normativ talablar hamda zamonaviy oliy ta'lim tamoyillari asosida yo'lga qo'yilgani aniqlandi. O'quv reja, fan dasturlari va sillabuslarning ta'lim dasturi maqsadlari hamda kutilayotgan ta'lim natijalari bilan o'zaro uyg'unligi ta'minlangani kuzatildi. Transport muhandisligi yo'nalishida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, shuningdek, loyihaviy ishlarning o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim natijalarini baholashning shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etish bo'yicha tartiblar amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar va daliliy materiallar asosida talabalar faoliyatini tashkil etish, ularning akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda talabalar harakati bilan bog'liq jarayonlar belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida talabalar faoliyatini boshqarish, o'quv jarayonidagi ishtirokini ta'minlash va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur me'yoriy-huquqiy hamda tashkiliy asoslar shakllantirilgani aniqlandi. Qabul mezonlari va tartiblari ochiq belgilangani, qabul parametrlari universitetning mavjud imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish talablariga muvofiqlashtirilgani kuzatildi. Ingliz tilida amalga oshiriladigan ta'lim dasturida talabalar uchun akademik va til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, talabalar uchun qulay, ochiq va

samarali ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan amaliyotlar yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar asosida 60711900 – "Barqaror transport" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va boshqarish jarayonlari belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida professor-o'qituvchilar tarkibini rejalashtirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish hamda ta'lim jarayonini malakali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha zarur tashkiliy va me'yoriy asoslar yaratilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, malaka oshirish hamda ilmiy faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan mexanizmlarning amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Barqaror transport yo'nalishida professor-o'qituvchilarning muhandislik-amaliy tajribasi, zamonaviy transport texnologiyalari va barqaror rivojlanish tamoyillari bo'yicha bilim va ko'nikmalari ta'lim sifatini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini muntazam rivojlantirish va ularni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar va daliliy materiallar asosida 60711900 – "Barqaror transport" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli infratuzilmaning holati belgilangan mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida o'quv xonalari, laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va elektron ta'lim resurslari o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur darajada shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnik vositalar va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgani kuzatildi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni to'liq ta'minlash nuqtai nazaridan binolar va jihozlarning moslashtirilishi, maxsus o'quv materiallari bilan ta'minlanganlik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish zarurligi qayd etildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha 6.4-mezon talablarini to'liq ta'minlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi. Umuman, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli infratuzilma

belgilangan mezonlar talablariga mos kelishi, inklyuziv ta'lim sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqligi e'tirof etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallari hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Barqaror transport yo'nalishi uchun ixtisoslashgan laboratoriya bazasini rivojlantirish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallarini yaratish.
- ✓ Ixtisoslashgan transport laboratoriyalari va jihozlar bazasini kengaytirish.
- ✓ Ekologik va energiya samaradorligi mazmunini o'quv jarayoniga chuqurroq tatbiq etish.
- ✓ Ish beruvchilar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti" nodavlat ta'lim muassasasida 60711900 – "Barqaror transport" bakalavriat ta'lim dasturi (ta'lim tili – ingliz) bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda xalqaro yondashuvlar asosida ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgani va ta'lim natijalarini baholash tizimining amaldagi me'yoriy talablarga muvofiqligi kuzatildi. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim

dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli salohiyatga ega ekani, moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti va raqamli infratuzilma o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishi qayd etildi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni ta'minlashga oid 6.4-mezon bo'yicha mavjud sharoitlarni belgilangan talablar darajasiga yetkazish zarurligi aniqlandi. Mazkur holat ta'lim dasturining amalga oshirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi hamda asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi, 6.4-mezon bo'yicha esa qo'shimcha takomillashtirish ishlari olib borilishi maqsadga muvofiq deb e'tirof etildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

